

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARINI O`QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.

Axmedova Xumora

*TDIU 2-sonli akademik litseyi
Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada g’azal mulkining sultonı Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarini maktablarning yuqori sinf o`quvchilari, akademik litseylar o`quvchilari uchun mustaqil dars soatlarida o`rganish usullari tavsiya etilgan. Komil inson g’oyasini o’quvchilar ongiga singdirishda ushbu asarning o`rni bo`lakcha. Bugungi kun yoshlari ongiga qay tariqa tushuntirish bayon etilgan.

Kalit so’zlar: tasavvuf, komil inson, ishq, majoziy ishq, haqiqiy ishq

Annotation

In this article, methods of learning Alisher Navoi's work "Lison ut-tyre" by the sultan of ghazals are recommended for high school students, students of academic lyceums in independent lessons. The role of this work in inculcating the idea of a perfect person in the minds of students is small. How to explain to the minds of today's youth.

Key words: mysticism, perfect man, love, figurative love, real love

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARINI O`QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.

Alisher Navoiyning tasavvufiy ruhda bitilgan asarlari maktab va akademik litseylar darsliklariga kiritilmaganligi bois, biz mustaqil o‘qish soatlarida “Lison ut-tayr” asarini o’quvchilarga turli yo‘llar orqali tushuntirishimiz mumkin. Ushbu asarni o’quvchilarga o‘tishdan maqsad, yozuvchining tasavvufiy qarashlarini mushohada qilish, asar haqida, xususan, asarda ilgari surilgan g‘oya haqida ma’lumot berish.

Dastlab asar haqida umumiylar ma’lumotlar aytib o‘tamiz:

- 1498-99 yilda fors shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta’sirida yozilgan.
- Asardagi boblar alohida epizodlar, savol-javoblar, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan.
- Navoiy unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ifodalagan.

- Asarning barcha g‘oyasi odamning tarbiyasini ko‘rsatishga qaratilgan.
- "Lison ut-tayr" 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo‘lib, aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilotun — foilon) vaznida yozilgan.
- Asarda inson ulug‘lanadi, uning kamolotga erishish yo‘li yuksak she’riy mahorat bilan bayon etiladi

Asarning kompozitsion qurilishi:**Asarni o‘qishdan oldin:**

"Lison ut-tayr" (Qush tili). Asar, sizningcha, nima uchun shunday nomlangan?

Asar haqida oldin ham eshitganmisiz?

XIV**Qushlar ijtimoi va taqdim va ta’xir uchun bir-biri bila nizo’i**

*Jam o‘lub bir kun guliston qushlari,
 Beshau bahru biyobon qushlari.
 Borchal manzilda majma tuzdilar,
 Har bir o‘z xaylu safin ko‘rguzdilar.
 Kim muhabbat birla tuzqoylar navo,
 Chun tug‘onsa bazm, tutqoylar havo.
 Ultururda chunki oyin yo‘q edi,
 Har birining o‘rni tayinlash yo‘q edi.
 Yuqori o‘lturdi to‘tidin kalog‘
 Bulbulu qumridin ko‘chasi yanglig‘ki zog‘.
 Xod sung‘urdin bitik tutti maqom,
 Yurtachi tovus uza qildi xirom.
 Chun hunarvar uzra chidi behunar,
 Tozdin qoldi quyiroq tojvar.
 Xayli ashrof ettilar zohir nizo,
 Qilmadi ko‘chasi so‘zga arzol istimo.
 Tushti qushlar ichra g‘avg‘o har taraf.*

*Mojaro birla muhoko har taraf.
 Bir-biridin o‘tmadi ul mojaro,
 Har dam oshti mojaro ul xayl aro.
 Bo ‘ldilar muhtoj oxir ul guruh,
 Kim agar bo ‘lsa shahi sohibshukuh.
 Hokimi insoflik ‘donodile,
 Hush oyin shahriyori odile,
 Etmagay adnodin a’log ‘a shikast,
 Bo ‘lmaq ‘ay ashraf axas ollinda past,
 Har guruh erdi o‘ziga chun aziz,
 Istadi borcha shahi sohibtamiz.
 Yo ‘qligidin zoru mahzun bo ‘ldilar,
 Har biri o‘z holiga mag‘bun bo ‘ldilar.
 Ya ‘s ohangin tuzub tortib navid
 Bo ‘ldilar shahdin sarosar noumid.
 Bu taabdin har biri ko ‘nglida tob,
 Nim bismil qushdek aylab iztirob.¹*

XIV

**Qushlarning bir yerga to‘planishi va o‘rin talashib bir-birlari bilan nizo
 qilishlari hamda bir shohga muhtoj bo‘lishlari**

Bir kun guliston, o‘rmon, dengiz va biyobon qushlari har biri o‘z guruhi bilan bir yerga jam bo‘lib, majlis tuzdilar. Ular muhabbat bilan navo tuzib, bazm tugagach, osmonga parvoz qilmoqchi edilar. Ammo bu yig‘inda ulardan hech qaysining tayin bir o‘rni yo‘q edi. O‘tirishda tartib bo‘lmaqani uchun Kalog‘(olaqarg‘a) To‘tidan, Zog‘(go‘ngqarg‘a) esa Bulbul va Qumrilardan yuqoriroqda o‘tirdi. Xod(kalxat) Shunqordan to‘rga chiqdi. Yurtachi(o‘laksaxo‘r) esa Tovusni ham nazar-pisand qilmay yuqoriga o‘tib ketdi. Hunarliklar o‘rnini behunarlar egalladi. Tojsiz qushlar to‘rga chiqib olishdi, tojdor qushlar esa poygohda qolishdi.

Nihoyat, poygohdagilar nizo chiqardilar, to‘rdagilar esa ularning so‘ziga qulop osmadilar. Natijada qushlar orasida g‘avg‘o-to‘polon ko‘tarildi, ular sodir bo‘lgan ahvolni mojarolasha-mojarolasha qizg‘in muhokama qila boshladilar. Vaqt o‘tgan sari bu mojaro tobora oshib bordi. Oxir-oqibat ular shunday bir shohga muhtoj bo‘ldilarki, u shoh insofli va diyonatli, yaxshi tartib o‘rnata oladigan va adolatli bo‘lsin. Toki uning davlati soyasida pastdan a’loga shikast yetmasin, yuqori tabaqadagilar esa o‘rta tabaqalar oldida xor bo‘lmasin. Har bir qush guruhi o‘ziga

¹ Alisher Navoiy (to‘la asarlar to‘plami) – 9-jild – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti – 2012-yil, B – 29.

aziz bo‘lgani holda, hamma bir tamizli, aqlli va dono shoh bo‘lishini istadi. Ammo bunday odil shoh ular orasida yo‘q edi. Shuning uchun ham qushlar zoru mahzun bo‘lib, har biri o‘zining yomon holidan afsus chekmoqqa kirishdi. Ulardan motam ohanglari eshitila boshladи. Bunday shoh topilmасligидан ularning barchasi noumid bo‘ldilar. Bu hodisa ular qalbida og‘ir iz qoldirdi. Ular chala so‘yilgan qush kabi iztirob cheka boshladilar.

O‘ylab ko‘ring: Qushlar orasida chiqqan mojaroga
sabab nima va uning yechimi qanaqa bo‘lishi mumkin?

XV

**Qushlar shoh tilab topmog‘ondin mutahayyir bo‘lg‘onda, Hudhud
Semurg‘din xabar degoni**

*Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,
Rohbarlig‘ afsaridin sarbaland.
Zotida izzat sharaf me’rojidin,
Boshida zevar hidoyat tojidin.
Jabrailoso ayon yuz roz ango,
Qurb arshi avjida parvoz ango.
Kirdi ul majma’ aro devonavor,
Sham’i maqsud vasfida parvonavor.
Dedi: “K-ey gofil, guruhi bexabar,
Holingiz g‘aflat aro zeru zabar.
Sizga shohe bor beshibhu misol,
Vasfini ayturda yuz ming nutq lol.
Barcha olam qushlariga shoh ul,
Holingizdin mo ‘-bamo ‘ ogoh ul.
Ul yoqin sizga-yu siz ondin yiroq,
Vasl - anga oyin, vale sizga - firoq.
Har parida yuz tuman rangi ajib,
Lek har rangida yuz naqshi g‘arib.
Naqshu rangidin xirad ogoh yo‘q.
G‘ofil erkanga xirad ikroh yo‘q.
Kim xirad idrokidin afsundur ul,
Mundin idrokiga toimas aql yo‘l.
Ham nishiman Qofi istig‘no ango,
Ham laqab ul Qof uza Anqo ango.
Shuhrati Semurg‘ ila ofoq aro,*

Zoti mamlu charxi oliy toq aro.
 Siz tushub ul shohdin behad baid,
 Ul yaqinroq sizga min hablul varid.
 Har kishi bo 'lsa tirik ondi yiroq,
 Ul tiriklikdin o 'lum ko 'p yaxshiroq

XV

**Qushlarning o'zlariga shoh istab, uni topa olmay hayron bo'lib
 turganlarida, Hudhudning Simurg' haqida xabar bergani**

Hudhud(*popushak*) aql nuridan bahramand va rahbarlik jig'asi bilan sarbaland bo 'lgan bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat nihoyatda yuksak bo 'lib, boshini to 'g'ri yo 'l ko 'rsatuvchi toj bezaydi. U Arsh oldida parvoz qiladi va Jabroil kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo 'lib turadi. U maqsad shami vasfini kuylash uchun parvonadek yonib, bu yig'in ichiga devonavor holda kirib keldi va shunday dedi:

— Ey, g'ofil va bexabar gumroh! Sizning ushbu holingiz g'aflat aro ostin-ustun bo 'lib yotibdi. Chunki siz uchun olamda tengi va o 'xhashi yo 'q bir shoh borki, uning vasfini aytishga yuz ming til ham ojizlik qiladi. U olamdag'i barcha qushlarga shohdir, holingizdan doimo ogohdir. U sizga yaqin, ammo siz undan yiroqsiz. U sizning vaslingizga yeta oladi, biroq siz uning firoqida qolgansiz. Uning har patida yuz minglab ajoyib ranglar jilva qiladi. Har bir rangning o'zida yana ming xil go 'zal naqshlar bor. Uning bu naqsh va ranglaridan aql xabardor emas, tafakkur uni mushohada etishga ojizdir. Chunki u aql bilan idrok qilishdan ustun bo 'lib, shu bo 'lsa aql uni idrok qilishga yo 'l topa olmaydi. U Qof degan tog 'da yashaydi, o 'sha yerlarda uni Anqo deb ham ataydilar. Burun olamda u Semurg' nomi bilan shuhrat topgan, zoti esa bu oliy va yagona osmon peshtoqi aro to 'pdir.

Siz u shohdan benihoya uzoqdasiz, ammo u sizga bo 'yin tomiringizdan ham yaqinroqdir. Har kishi tirik bo 'la turib, undan yiroqda bo 'lsa, bu tiriklikdan o 'lim ko 'p yaxshiroqdi

O'ylab ko'ring: Hudhud qushlarga boshchilik qilishga haqlimi?

Semurg'ni siz qanday ta'riflar edingiz?

O'quvchilarni asar matniga to'la qiziqtirganimizdan so'ng, asar haqida umumiylar ma'lumotlar va mulohazalarini aytib o'tamiz

Semurg` timsoli

Qushlar podshosi

Ilohiy ideal

O'ttiz qush

Qur'oni karimdag'i
rivoyat qahramoni
(so'fiy) timsol
darajasiga ko'tarildi

donishmand

*Hudhud
timsoli*

Qushlarga
komil
yo'lboschi

Solik qush bilan
Simurg` o'rtasida
bog'lovchi
vositachi

*Hudhud bilan yo'lga chiqqan qushlar qiyinchiliklar boshlanganidan
so'ng uzr aytib, birma-bir Hudhudni tark eta boshlaydilar. Bu
qushlarning barchasida alohida tasavvufiy ma'no yuklangan edi.*

Jumladan

1

- **To'ti** – mumtoz adabiyotda shirinso'zlik timsoli. Dostonda esa zohiriy orzu-havasga o'ch, xudbin, o'z-o'ziga bino qo'ygan kishi timsoli. (Yashil to'n kiygan kishi)

2

- **Tovus** – ma'shuqaning go'zalligi va qadam tashlashi ramzini bersa, dostonda zebu ziynatga bino qo'ygan kishi yoki o'zining ilmi, amaliga bino qo'yish ramzi (masxaraboz hindu)

3

- **Bulbul** – oshiq timsoli, dostonda zohiriy go'zallikka, o'tkinchi jiloga maftun kishi timsoli. (shohga oshiq bo'lgan gado - soxta oshiq)

4

- **Qumri** – xonaki, sayroqi qush, dostonda g'aflatda yurgan o'ta xonaki hunarmandlar timsoli (bog'bon)

5

- **Kabutar** – mifologiyada ruh, tinchlik timsoli. Vujudiga asir notavon ruh timsoli. (shapaloqdan qornini to'ydirgan tanbal)

6

- **Kabki dari (tog' kakligi)** – zohid timsoli (qallob gavharfurush)

7

- **Tazarv (tustovuq)-** go'zallik timsoli, dostonda tashqi go'zalligiga bino qo'ygan, ruhiyatning yengil-yelpilikka moyillik timsoli (Muqbil va Mudbir)

Muhokama qiling: Qushlar va ular ifodalagan ramziy timsollar qanchalik bir-biriga mos?

Dars davomida...

Endi esa, Hudhud boshchiligida yo'lga chiqqan qushlar yetti vodiyni bosib o'tadilar. Vodiylarni kezish jarayonida, qiyinchiliklarga duch kelinganida turli hikoyatlar qushlar tilidan aytiladi.

Albatta, bu vodiylar ham hikoyatlar ham tasavvufiy qarashlarni ifodalaydi

- **Tavhid** Mansur Xalloj haqidagi rivoyat
- **Hayrat** Go'zal malika va unga oshiq yigit haqida hikoya
- **Faqru fano** Shayx Abul Abbas qassob va obdasta so'ragan devona; Bahovuddin Naqshband so'zlari; parvonalar to'dasi
- **Talab** Go'zal shahzoda va unga oshiq ikki yigit haqida hikoya
- **Ishq** Asma'iy va oshiq yigit suhbati

- ***Ma'rifat*** Ko'rlar va fil hikoyati
- ***Istig'no*** Ikki ustod va shaxmat donalari

O'ylab ko'ring: Yetti vodiya keltirilgan hikoyalar haqida eshitgansizmi?

Eshitmagan yoki o'qimagan bo'lsangiz
hikoyalar qanday mazmunga ega bo'lishi mumkin?

Dars jarayonida o'quvchilarga ko'proq nazariy ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi mavzuni mustahkamlash uchun unga qiziqarli va fikrlashni taqozo etadigan uy vazifasi bergan ma'qul.

Uyga vazifa sifatida bir nechta tavsiyalar berib o'tamiz...

- + Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan olgan xulosalariningizni umumlashtirib, hikoya tuzishga harakat qiling?
- + Siz Semurg'ni qanday ta'riflar edingiz? Rasmda aks ettiring.
- + Alisher Navoiyning o'rnida siz tasavvufni yoritish uchun qanday obrazlardan foydalanar edingiz?
- + Asar mazmunini bugungi kunga moslashtirib matn yaratishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr – T.: Adabiyot va san'at, 1991
2. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – T.: G'afur G'ulom, 1991
4. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi(“Xazoyin ul-maoniy” asosida) – T.: Fan, 1983 – B 25
5. Yo'ldoshev Q. va b Adabiyot darsligi(9-sinf) – T.: O'zbekiston, 2019
6. To'xliyev B. va b. Adabiyot darsligi(10-sinf) – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017
7. To'xliyev B. va b. Adabiyot darsligi(11-sinf) – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018